

THE ROLE OF FAIRY TALES IN CHILDREN'S EDUCATION

Sultonova Shoxida Mukhtorovna

Master's Degree of Gulistan State University Faculty Of Pedagogy
"Theory And Methodology Of Education And Training"

ANNOTATION

This article deals with the formation of memory and attention of preschoolers through fairy tales.

Keywords: fairy tale, upbringing, hero, morality, ability, hatred, riddle, goodness, homeland, man, humanity, dignity, fantasy, perfection, perseverance, storytelling, friendship, honesty, integrity.

INTRODUCTION

Bizning millatimizda kun botgach, bolaga topishmoq va ertak aytib berish o'ziga xos an'anaga aylangan. Va bu an'ana asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Chunki ertak bolaning aqliy salohiyatini, topqirligini o'stirish bilan birga, uning tunni tinch va osuda o'tkazishiga ham xizmat qilgan. Ma'lumki, ertakni qiziqarli va maromiga yetkazib aytish va shu orqali bolaning e'tiborini jalb qilish ham bir san'at. Qolaversa, xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi bo'lmish ertaklar faqat tarbiya vositasi emas, balki ota-ona va farzandni ruhan yaqinlashtiruvchi ko'prikdir. Shuning uchun ham mutaxassislar ota-onalarga farzandlariga ko'proq ertak aytib berishni ta'kidlashadi. Zero, bir narsani unutmaslik lozim, ertaklar hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo'lsa-da, ularda tabiiy ravishda hayot haqiqati aks etadi. Qiziqarli syujet bilan boyitilgan bu hikoyalar bolaning ongli ravishda hayotni anglashiga yordam beradi. Dunyo xalq og'zaki ijodini kuzatadigan bo'lsak, ular orasida farqlardan ko'ra, o'xshashliklar ko'proq ekanligiga amin bo'lamiz. Buning sababi shuki, insonlar qaysi millat vakillari bo'lishidan qat'i nazar ularning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori bir xil. Shuning bilan birga, har bir millat avlod-ajdodlari tafakkurida dastlab mifologik tasavvurlar ustunlik qilgan va o'sha davrlarda qadriyatlar, orzu-istaklar deyarli bir xillik kasb etgan. Ertaklar turli tillarda, turli urug' va qabilalarda turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, o'zimizning respublikamiz miqyosida oladigan bo'lsak, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida ertak – matal deb nomlansa, Buxoro atrofidagi ayrim qishloqlarda ushuq, Xorazmda – varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida – cho'pchak deyiladi. O'zbek milliy ertaklarining aksariyati «Bir bor ekan, bir yo'q ekan», deb boshlanadi, eng asosiy voqealar «yo'l yuribdi mo'l yuribdi»dan keyingi vaziyatga to'g'ri keladi. «Qahramonlar taqdiri nima kechdi ekan?» degan savolga ertak yakunida albatta «murod maqsadiga yetibdi» tarzida javob olinadi. Bir so'z bilan aytganda, ertaklar yosh avlodning sog'lom va barkamol voyaga yetishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa ota-onaga jahon va o'zbek xalq ertaklari jamlangan kitoblar yaqindan ko'mak beradi. Farzand o'stirayotgan har bir ota-onaga ana shunday ertak kitoblar hamroh bo'lsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Dono xalqimiz "Ertaklar-yaxshiliklar yetaklar", deb bejiz aytishmagan. Ertaklar bolalarning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni jo qilishda, ularning ma'naviy olamini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalarning xotirasi, diqqat-e'tibori, tafakkuri rivojlanadi. Ertaklarni tinglash til va nutqning taraqqiy etishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Boladagi ayrim nutqiy kamchiliklarni hikoya va ertaklar eshitish, she'r yodlatish, shuningdek so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirish va turli xil mashqlar bajarish orqali bartaraf etish mumkin. Ertak mazmuni asosida bolalarda ezgu xislatlarni tarbiyalash, insoniy fazilatlarni targ'ib etish, ular o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatish kerak. [5.,30-36b] Jumladan, hayvonlar haqidagi "Tulkining taqsimoti" ertagida ayyorlik va tilyog'lamalik tulki obrazi orqali ifodalangan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan ertak o'qib bo'lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding?", kabi

savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga yordam beradi. Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. "Sehrli sholg'om" ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, "Kuch birlikda" degan g'oyani anglab yetishini ta'minlasa, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug'lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o'rgatiladi.

Shuningdek, ertaklarni mahorat bilan bolalarga o'qib berish, kichiktoy bilan his-hayajonli muloqotni o'rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta'sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma'lumot zaxiralarini samarali to'ldirishga imkon yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so'z boyligini oshirishga, ularning nutqini o'stirish, tafakkuri va ma'naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAIN PART

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. Tashhisning maqsadi bolaning qaysi turiga ko'proq mos kelishi va u qanday tasavvur paydo bo'lganligini aniqlashdir. Bu maxsus testlarni o'tkazadigan psixologlar yordamida amalga oshirilishi mumkin, natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlarni tanlash mumkin. Shuningdek, bolaning imkoniyatlarini mustaqil ravishda aniqlash, unga turli tadbirlarni taqdim etish va eng qiziqarli sabablarni kuzatish mumkin. Qanday tasavvur paydo bo'lganini ham belgilab oling, o'yinda xatti-harakat bilan ham mumkin. Yuqori darajadagi hayoliy tasvirlarni ishlash qobiliyatini ko'rsatadi, ularni birlashgan tasvirlar yoki sub'ektlardan kompilyatsiya qilish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlari ham mumkin va ularning asl qobiliyatidan qat'i nazar, rivojlantirish kerak.

Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro axillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishni istaydilar. Hayvonot olamida do'stga mehribonlik ko'rsatish, bir- biriga g'amxor bo'lish, yordam qo'lini cho'zish bor ekanligini "Arslon bilan it", "Tuyaqush bilan Qoplon", "Echki, qo'y va bo'rilar" kabi ertaklarda beriladi. "Tuyaqush bilan Qoplon", ertagiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda xuddi odamlar orasida bo'lganidek, hayvonlar o'rtasida xam bir-biriga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi:

Qoplonning boshiga musibat tushibdi. Tomog'iga katta bir suyak qadalib qolibdi. Dod-faryod qilibdi. Tuyaqush yordamga kelib:

-Osmonga qarab og'zingni ochib tur, men suyakni olib qo'yay,- debdi Qoplonga.

Qoplon osmonga qarab og'zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug'ini qoplonning og'ziga solib, tiqilib turgan suyakni sug'urib tashlabdi. Qoplonning ko'zlari ravshan bo'lib, o'limdan qutilibdi. Biroz joni orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:

- Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi ikkalamiz do'st bo'lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordam qilamiz,- debdi.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo'libdi. Tuyaqush bilan Qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar. Xalqda "O'zga bilan do'st bo'ldingmi, bir umrga bo'l, uni yaxshi yomon kunlaringda sinama va unga riyokorlik ko'rsatma", degan gap bor. Tuyaqush bu yo'ldan bormabdi. Oradan ko'p vaqt o'tibdi, kunlardan bir kun u Qoplonni sinamoqchi bo'lib, jo'rttaga:

-Voy dod, o'layapman, Qoplon, meni qutqar! – deya bor ovozi bilan Qoplonni yordamga chaqiribdi. Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxor va mexribon bo'lganligi uchun zudlik bilan Tuyaqushning oldiga shox- butoqlar orasidan ustidagi junlari yuliniib, harsillab yetib kelibdi. Lekin u Tuyaqushning yuzidagi tabassumni ko'rib xayron bo'libdi. Tuyaqushning surbetlik bilan “Ko'rmaganimga ancha vaqt bo'ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qoldimi, deb sinab ko'rmoqchi edim”, degan gapidan Qoplon qattiq ranjibdi, dili og'ribdi, do'stidan ko'ngli qolibdi. Do'stini aldagan o'zini aldagan bo'ladi. Sen birovni bir marta aldadingmi, tamom, u senga ikkinchi marta ishonmaydi. Tuyaqush bilan ham xuddi shunday bo'libdi. Boshqa kuni Bo'ri uni ushlab yeb qo'ymoqchi bo'lib turganda, qancha baqirib chaqirmasin, Qoplon Tuyaqushning ovozini eshitsa ham, “Do'stim jo'rttaga dodlayapti,” deb o'ylabdi va uning oldiga bormabdi. Tuyaqush Bo'riga yem bo'libdi.[2.,45b]

CONCLUSION

Xullas, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlari tinglagan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu, yomonligini bilib o'saveradilar.

REFERENCES

1. Karimov I. A. “Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.” T. 1998
2. “Болаларадабиёти” (Ўқитувчи” нашриёт-матбааиждийуйи, Тошкент, 2013) дарслигидан
3. O. U. Xasanboyevava boshqalar. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”. T, “Ilm zayo” 2006.
4. Sodiqova SH. Makotabgacha pedagogikoa. – Tafakkur bo'stoni, 2013.
5. Juraev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari. - O'zbek tili va adabiyoti : 1996.